

## **O'QITUVCHI IMIJINING SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIK MADANIYAT**

***Doniyorova Gulbahor Bobir qizi***

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘qituvchilik faoliyatida unga yordamchi vositalar, xususan, pedagogik so‘z qo‘llash mahorati, undan to‘g‘ri foydalanish va imij hamda liderlik tushunchasi haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** **Imijeologiya**, pedagogik imij, pedagogik madaniyat, kasbiy layoqat, Ervin Gofman, lider.

*O‘qituvchi imiji haqida fikr yuritar ekanmiz, ko‘pchiligidan bu soha vakilining yuksak fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faolligi, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan bilimdonligi, ilmiy va ijodiy dunyoqarashining kengligi, yoshlarga, atrofidagi insonlarga nisbatan muhabbati, pedagogik jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantrishga intilishning mavjudligi, shaxsiga va boshqalarga nisbatan talabchanligi, qat’iyatliligi, umumiy pedagogik madaniyati va etikasi yuqori bo’lgan hamda yuqori kasb mahorat egasi bo’lishi lozim. deb tushunamiz.*

*Darhaqiqat, o‘qituvchi o‘zini «taqdim etish» vazifasini o‘zi to‘g‘risidagi ilk taassurot shakllantirayotgan paytda amalga oshirishi maqsadga muvofiq. «Noverbal» deb nomlanadigan imij o‘qituvchi imo-ishoralari, yuz-qarashlari, savlatini nazarda tutadigan yoqimli sifatlarini qay darajada ishlata olishi bilan bog’liq. Yaxshi sifatlar turli vaziyatlarga tezkor o’rganishga, odamlar bilan kommunikativ aloqalar o’rnatishga yordam beradi. Pedagog imijining muhim tomoni – «verbal» imij, ya’ni uning so’z boyligidir. Nutq mahsuldarligi uning egiluvchanligi, ta’sirchanligi, originalligidadir.*

*Qadimgi donishmandlarning aytishicha, notiqlik san’ati – bu so’z bilan ishontirish qobiliyati demakdir. Ayni damda **Imijeologiya** insonlarga yoqish san’ati va fani bo’lib, uming yilliklar davomida rivojlanib kelmoqda. Imijeologiya deb yuritiladigan ushbu*

yo'naliш har bir insonni yoqimli, jozibador bo'lish va boshqalarga xush kayfiyat ulashish, yaxshi yaxshi ko'rinish va aql mutanosibligi orqali yorug'lik ulashishni o'rgatish bilan shug'ullanadi. Demak, Imijeologiya fani insonlarni, ya'ni: odam-dadamga, odam-tabiat, odam-texnika. odam-badiiy tasvir obrazi kabi ta'sir ko'rsatish texnologiyasi bilan o'z vazifalarini amalga oshirib boradi.

Fanda insonlarga ta'sir ko'rsatishning ikki xil usuli mavjud bo'lib. birinchisi - «Ishontirish usuli», ikkinchisi – «Yoqish usuli»dir. Ulardan qay biri ahamiyatliroq va ishonchliroq degan savolga har ikkalasining ham inson hayotida muhim o'mi bor deyish mumkin.

Ingliz tilidan «image» so'zining o'zbek tiliga tarjimasi «ko'rinish», «qiyosa», «siymo», «timsol» ma'nolarini anglatadi. Shundan kelib chiqib, imij qandaydir sintetik siymo bo'lib, aniq bir insonga bo'lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyekt qiyofasidir. U o'zida yetarli darajada histuyg'uga bezalgan obyekt to'g'risidagi axborotni qamrab oladi va aniq ijtimoiy munosabat tasavvurini yuzaga keltiradi.

Amerika sotsiologi Ervin Gofmanning fikricha: **Imij – taassurotlarni boshqarish san'atidir.** Xo'p, taassurotlarni qanday qilib masofadan boshqarish mumkin? Bunday holatda boshqaruvchi qanday xususiyatlarga ega bo'lmog'i kerak? Unga ko'proq bilim kerakmi yoki tajriba muhim?

**Imijning qadriyat funksiyalariga quyidagilar kiradi:**

**1. Shaxsni yuksaltiradigan omillar.**

Ijobiy imij tufayli shaxsning siy়omosi, ma'naviy xislati namoyon bo'ladi, vizual tarzda uning eng yaxshi xususiyatlari moddiy tarzda gavdalanadi hamda uning individual o'ziga xosligi ko'rindi.

**2. Psixoterapevtik omillar.**

Jozibador, iliq, tabassumli xususiyatga ega shaxs insonlar e'tibori va hurmatiga sazovar bo'lishi muqarrar, unga bu bioenergetik quvvat to'ldirish va tiklash imkonini beradi, bunga undagi ijobiy barqaror xush kayfiyat misol bo'ladi. Bu toifadagi insonlarda

o'z maqsadiga erishish sari optimist va ochiq hamda uning o'z-o'ziga ishonchi mavjuddir. Bunday insonlar ozroq psixofizik sarflar orqali hayotiy yutuqlarga erishish mumkin.

Imij – bu nafaqat ko'rinish, balki nutq, muomala orqali namoyon bo'ladigan ta'limgartarbiyaviy jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Shulardan biri – shaxs o'zini taqdimot qilishi. Mazkur holatda – tashqi qiyofa orqali insonlarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoyon qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish muhim sifat sanaladi.

*Insonlar o'z-o'zini taqdim qilishlarida faqat iste'dodning, bilimning o'zi yetarli emasligini o'qituvchilar misolida ko'rib o'tsak. Shu o'rinda, balki o'quvchilar ko'ngliga yoqa olishni ham bilish kerak. Aksariyat insonlardan nima uchun aynan shu fanga qiziqasiz, deb so'ralganda, «Ustozimni yaxshi ko'rardim» yoki «Darsini juda qiziqarli o'tardi», degan javoblarni olamiz. Demak, o'qituvchi o'zini, fanini taqdimot qila olgan.*

Lider-yetakchi imijida shaxsiy, ya'ni biror shaxsning o'zigagina xos, ijtimoiy, professional tarkibiy qismlar ajralib turadi.

«O'zini taqdimot qilishning umumiy texnologiyasi» 4 ta asosiy texnologik jihatdan iborat ekanligini olimlar quyidagicha tasniflaydilar:

- 1) qiyofa vizualizatsiyasi;
- 2) kommunikativ mexanika;
- 3) verbal effekt;
- 4) flyuid nurlanish.

Qiyofa vizualizatsiyasi feysbildung: yuz gigiyenasi, fiziognomika, kosmetologik tuzatish, makiyaj yoki vizaj, sochlarni parvarishlash va mos turmak(yoki parik)ni tanlash;

**O'qituvchi faoliyatiga ushbu jarayonni tatbiq qilsak:** o'qituvchining qaddi-qomati, yuz makiyaji, soch turmagi va boshqalar.

– **kinesika:** tana nafisligi, xatti-harakat va holat jozibadorligi, ishora san'ati, sog'lom turmush tarzi.

**O'qituvchi faoliyatiga ushbu jarayonni tatbiq qilsak:** xatti-harakatlar bir me'yorda va juda jonli, harakatlar va so'z bilan ish birligi, tashqi ko'rinish va hayot tarzining mutanosibligi.

– **kiyinish usuli:** erkak va ayollar zamonaviy moda olami tendensiyalari, yaxshi kiyinib yurish, aksessuarlar samaraligi.

Nutqning savodliligi – imijga ta'sir ko'rsatuvchi kuchli vosita bo'lib, bunda so'zni o'z o'rnida ishlata olish ko'nikmasi to'g'ri rivojlangan bo'lishi lozim.

**Ta'lim muassasasi rahbari imijining** individual va shaxsiy sifatlari, kasbiy faoliyati va xulqining kommunikativ xususiyatlari kabi xossalardan iborat bo'lib, u o'z faoliyati sermahsulligining to'rtdan uch qismini turli-tuman muloqotlarga sarflaydi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, pedagog notiqning vazifasi bayon etiladigan fikrlarni o'quvchi, talaba, tinglovchilarni to'g'ridan to'g'ri bevosita qabul qilib olishiga oldindan moslashtirish, soddalashtirish, tinglovchining yoshiga, jinsiga, kasbiga monandlashtirishdan iborat. Bu esa notiqning o'z fikrini qanday, qachon, qanaqa qilib, qay shaklda ifoda qilishiga ham bog'liq.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. Sitseron. Notiqlik san'ati. Toshkent, 2018. 60-b
2. Suyunov O.J., Tashmatov Sh.O'. Notiqlik san'ati va nutq madaniyati.
3. Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnali. 2014. № 2. 16-b
4. ''Pedagog mahorati'', darslik A.Xoliqurov-Toshkent-2011
5. <http://www.arxiv.uz>